

Matyakubov Umidjon Raximovich
Ma'mun universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Kodirova Feruza Sodiqjonovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY JIHATLARI: INSTITUTSIONAL SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELI

Annotatsiya. Maqolada turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. Avvalgi tadqiqotlardan farqli o'laroq, ushbu ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, muallif tomonidan turizm bozorini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy samaradorligini baholovchi to'rt komponentli indeks metodikasi (TITHSI-Tashkiliy-Institutsional va Tartibga solish Samaradorligi Indeksi) ishlab chiqilgan bo'lib, u institutsional barqarorlik, huquqiy tartibga solish sifati, raqamlashtirish darajasi va davlat-xususiy sheriklik faolligi ko'rsatkichlarini birlashtirgan holda bozorning tartibga solinish darajasini miqdoriy baholash imkonini beradi. Shuningdek, 2019–2025-yillar statistik dinamikasi asosida SWOT-tahlil o'tkazilib, uning natijalari jadval shaklida taqdim etilgan. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, statistik-iqtisodiy, SWOT va indeksli baholash metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari bozori, tashkiliy-huquqiy mexanizm, institutsional samaradorlik indeksi, SWOT-tahlil, davlat tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik.

Аннотация. В статье исследуются организационно-правовые аспекты развития рынка туристических услуг. Научная новизна работы заключается в разработке авторской четырёхкомпонентной методики индекса организационно-институциональной эффективности регулирования (ИОИЭР), объединяющей показатели институциональной стабильности, качества правового регулирования, уровня цифровизации и активности государственно-частного партнёрства. На основе статистической динамики 2019–2025 годов проведён SWOT-анализ, результаты которого представлены в табличной форме.

Ключевые слова: рынок туристических услуг, организационно-правовой механизм, индекс институциональной эффективности, SWOT-анализ, государственное регулирование.

Abstract. The article examines the organizational and legal aspects of developing the tourism services market. The scientific novelty consists in the development of an original four-component Organizational-Institutional Regulatory Efficiency Index (OIREI), which integrates indicators of institutional

stability, quality of legal regulation, digitalization level, and public-private partnership activity. Based on statistical dynamics for 2019–2025, a SWOT analysis is conducted and presented in tabular form.

Keywords: tourism services market, organizational and legal mechanism, institutional efficiency index, SWOT analysis, state regulation.

Kirish. Turizm xizmatlari bozorining samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan uni tartibga soluvchi tashkiliy-huquqiy mexanizmning sifatiga bog‘liq. O‘zbekistonda so‘nggi yetti yilda (2019–2026) ushbu mexanizm bir necha bor tubdan o‘zgardi: Davlat turizm qo‘mitasidan Madaniyat va turizm vazirligi tarkibidagi bo‘linmaga, undan mustaqil Turizm qo‘mitasiga o‘tish sodir bo‘ldi¹. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotda ushbu institutsional o‘zgarishlarning bozor samaradorligiga ta‘sirini miqdoriy jihatdan baholovchi yagona metodika mavjud emasligi sababli, tadqiqotlar, qoidaga ko‘ra, sifat tavsifi (deskriptiv tahlil) darajasida qolib ketmoqda.

Ilmiy muammo aynan shunda: institutsional islohotlar (Turizm qo‘mitasining tashkil etilishi, raqamli platformalarning joriy etilishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengayishi) bilan bozor ko‘rsatkichlari (turistlar oqimi, eksport hajmi, infratuzilma sig‘imi) o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimli, o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar orqali ifodalovchi vosita yo‘q. Bu bo‘shliq amaliyotchi va qonun chiqaruvchilarga islohotlar samaradorligini real vaqt rejimida kuzatish imkonini bermaydi.

Shu sababli tadqiqotning maqsadi - turizm xizmatlari bozorini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini tahlil qilish, uning samaradorligini baholovchi original indeks metodikasini ishlab chiqish va shu asosda amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Vazifalar:

1. Me‘yoriy-huquqiy bazani tizimlashtirish.
2. 2019–2025-yillar statistikasini tahlil qilish.
3. Institutsional samaradorlikni baholovchi indeks metodikasini ishlab chiqish;
4. SWOT-tahlilini o‘tkazish.
5. Amalga oshirish muddati va mas‘ul tashkilotlari ko‘rsatilgan aniq tavsiyalar berish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizmni institutsional tartibga solish nazariyasi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan davlat-xususiy sheriklik va bozor mexanizmlarining uyg‘unlashuvi nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Mahalliy iqtisodchi va huquqshunoslar (Karimova, 2024; Rasulov, 2023) tomonidan mavzu ko‘proq milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilingan². Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) tomonidan 2025-yilda e‘lon qilingan tahliliy hisobotda 2017–2024-yillar oralig‘ida turistlar oqimi,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni.

² Karimova D.A. Turizm sohasida davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2024. – №3.

mehmonxonalar soni va turoperatorlar faoliyati statistikasi keltirilgan bo‘lib ³, bu ma’lumotlar ushbu tadqiqotning empirik bazasini boyitishga xizmat qildi. Shunga qaramay, mavjud adabiyotda institutsional islohotlar bilan bozor ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni integral indeks orqali ifodalovchi metodika topilmadi - bu ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: formal-yuridik va qiyosiy-huquqiy metodlar (me’yoriy hujjatlarni tahlil qilishda); statistik-iqtisodiy tahlil va dinamik qatorlar metodi (2019–2025-yillar ko‘rsatkichlarini o‘rganishda); SWOT-tahlil (bozorning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlarini tizimlashtirishda); shuningdek, muallif tomonidan ishlab chiqilgan TITHSI indeks metodikasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$TITHSI = 0,30 \times I_{\text{barqaror}} + 0,25 \times H_{\text{sifat}} + 0,25 \times R_{\text{raqamli}} + 0,20 \times DXS_{\text{faollik}}$$

Bu yerda:

- **I_{barqaror}** - vakolatli organning institutsional barqarorlik darajasi . Bu oxirgi 5 yildagi qayta tashkil etilishlar soniga teskari proporsionaldir va bu qiymat 0–1 oralig‘ida normallashtirilgan;
- **H_{sifat}** - turizm sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarning amalda qo‘llanish samaradorligi ijro monitoringi ma’lumotlari asosida ekspert 0–1 oralig‘idagi bahosi;
- **R_{raqamli}** - davlat xizmatlarining raqamlashtirilish darajasining elektron xizmatlar ulushi, 0–1 oralig‘ida;
- **DXS_{faollik}** - davlat-xususiy sheriklik loyihalari soni va hajmining yillik o‘sish sur‘ati 0–1 ga normallashtirilgan .

Baholash mezon: Har bir komponent ekspert baholash va rasmiy statistika asosida 0 dan 1 gacha shkalada o‘lchanadi; indeksning umumiy qiymati 1 ga yaqinlashgani sari tartibga solish mexanizmi samaradorligi yuqori deb baholanadi[16].

Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari⁴, Milliy statistika qo‘mitasi⁵ va Turizm qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari⁶, shuningdek ITIM tahliliy hisoboti⁷ tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Turizm xizmatlari bozorini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazasi O‘zbekistonda turizm sohasini huquqiy tartibga solish Konstitutsiya normalari, “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlaridan iborat ko‘p pog‘onali tizimga ega.

3

⁴ O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi Qonuni.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari (2019–2026-yillar).

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining rasmiy sayti materiallari, 2025–2026.

⁷ Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). Ўзбекистон туризми: 7 йилда қандай ўзгаришлар бўлди? — Toshkent, 2025.

Prezidentning 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoni bilan madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari belgilangan⁸, 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni bilan esa 2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini oshirish vazifalari qo'yilgan⁹. 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son Farmon va 19-noyabrdagi PQ-348 son Qaror bilan mustaqil Turizm qo'mitasi tashkil etilib, unga normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish vakolati berilgan.¹⁰

Bozorning statistik-iqtisodiy dinamikasi (2019–2025-yillar). Institutsional islohotlarning ta'sirini ob'ektiv baholash uchun 2019–2025-yillardagi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi quyida keltirilgan (manba: Milliy statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi va ITIM tahliliy hisoboti ma'lumotlari asosida tuzilgan)¹¹:

1-jadval.

Turizm xizmatlari bozorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2019–2025).

Yil	Xorijiy sayyohlar soni (mln nafar)	O'zgarish, %	Institutsional holat
2019	6,75	+26,2 (2018 y.ga nisb.)	Davlat turizm qo'mitasi (2019 y. konsepsiyasi qabul qilingan)
2020	1,50	–77,7 (pandemiya)	Vazirlik tarkibiga qo'shilish jarayoni
2021	1,88	+25,3	Madaniyat va turizm vazirligi tarkibida
2022	4,75	+152,7	Vazirlik tarkibida, tiklanish bosqichi
2023	6,60–7,0	+39–47	PF-114-son islohotlar boshlanishi
2024	10,1	+44–52	PF-87-son Farmon tayyorgarligi
2025	11,0+ (prognoz)	+9–12	Mustaqil Turizm qo'mitasi tashkil etilgan (PQ-348)

2020–2021-yillardagi keskin pasayish COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq bo'lib, tashkiliy-huquqiy omillardan tashqari faktordir, biroq 2022–2025-yillardagi barqaror o'sish sur'ati aynan shu davrda amalga oshirilgan institutsional islohotlar (litsenziyalash tartib-qoidalarining soddalashtirilishi, elektron viza tizimining kengaytirilishi, “кэшбэк” dasturi) bilan uyg'un kelmoqda¹². Bu - institutsional o'zgarishlar bilan bozor ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikning bilvosita empirik tasdig'idir. Qo'shimcha ko'rsatkichlar: 2025-yilda turizm xizmatlari eksporti 4,8 milliard AQSh dollariga yetgan; 2026-yil yanvar-mart oylarida 164 mamlakatdan 2,87 million xorijiy fuqaro tashrif buyurgan (o'tgan yilga nisbatan +36,6%);

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoni.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son Qarori.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari (2019–2026-yillar).

¹² Dunyo AA. Ўзбекистон туризми тарихий рекордлари янгиламоқда. – 2025.

vizasiz kirish tartibi joriy etilgan davlatlar soni 94 taga yetgan; turoperatorlar soni 2017–2024-yillarda deyarli 5 baravar oshib, 3686 taga yetgan.¹³

2-jadval.

PF-217-son Farmon asosidagi 2030-yilgacha maqsadli ko'rsatkichlar¹⁴

Ko'rsatkich	Amaldagi holat (2025)	2030-yil maqsadi
YaIMdagi ulush	3,5%	7%
Xorijiy sayyohlar oqimi (yiliga)	~10–11 mln nafar	20 mln nafar
Turizm xizmatlari eksporti	4,8 mlrd AQSh dollari	6 mlrd dan yuqori
Vizasiz rejim joriy etilgan davlatlar	94 ta	Kengaytiriladi
4-5 yulduzli mehmonxonalar soni	Amaldagi daraja	2 barobar oshirish

TITHSI indeksi asosida institutsional samaradorlikni baholash. Yuqoridagi metodikaga muvofiq, mavjud ma'lumotlar asosida taxminiy hisob-kitob quyidagicha ko'rinishga ega (ekspert baholash asosida, 0–1 shkalada):

3-jadval.

TITHSI komponentlari bo'yicha taxminiy baholash (2025-yil holatiga)

Komponent	Vazn (a_i)	Ball ($X_i, 0-1$)	Vaznlangan qiymat (W_i)
Institutsional barqarorlik (I_{barqaror})	0,30	0,40	0,120
Huquqiy tartibga solish sifati (H_{sifat})	0,25	0,65	0,163
Raqamlashtirish darajasi (R_{raqamli})	0,25	0,55	0,138
DXS faolligi (DXS_{faollik})	0,20	0,60	0,120
TITHSI umumiy qiymati	1,00	—	0,541

Natija shuni ko'rsatadiki, bozorni tartibga solishning umumiy institutsional samaradorligi o'rtacha darajadan biroz yuqori (0,54/1,0), biroq institutsional barqarorlik komponenti eng past ko'rsatkichga ega (0,40) - bu vakolatli organning tez-tez qayta tashkil etilishi bilan bog'liq¹⁵. Aynan shu komponentni yaxshilash orqali umumiy indeksni sezilarli darajada oshirish mumkin.

SWOT-tahlil. Metodologiya qismida e'lon qilingan SWOT-tahlil natijalari quyida jadval ko'rinishida taqdim etiladi:

4-jadval.

Turizm xizmatlari bozorini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy tizimi SWOT-tahlili.

S - Kuchli tomonlar (Strengths)	W - Zaif tomonlar (Weaknesses)
* Siyosiy iroda: Yuqori siyosiy iroda va	* Institutsional beqarorlik: Vakolatli

¹³ Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). Ўзбекистон туризми: 7 йилда қандай ўзгаришлар бўлди? — Toshkent, 2025.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son Farmoni.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoni.

Prezident darajasidagi tizimli qo'llab-quvvatlash. * Liberallashtirish: Vizasiz rejimning 94 ta davlatga kengaytirilgani, vizasiz tranzit imkoniyatlari. * Moliyaviy mexanizm: Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali loyihalarni moliyaviy rag'batlantirish. * Raqamlashtirish: Yagona milliy turizm platformasi orqali boshqaruv va xizmatlarni raqamlashtirish.	organning tez-tez qayta tashkil etilishi va funksiyalar almashinuvi. * Ma'muriy yuk: Kichik va o'rta biznes (KO'B) uchun sertifikatlashtirish talablarining ortiqcha yuklamasi. * Huquqiy bo'shliq: Turistlar huquqlarini himoya qilishning alohida mukammal qonuniy asosi yo'qligi. * Muvofiqlik muammosi: Hududiy dasturlarni markaziy strategiya bilan muvofiqlashtirish mexanizmining zaifligi.
O - Imkoniyatlar (<i>Opportunities</i>) * Strategik maqsadlar: 2030- va 2040-yilgacha mo'ljallangan uzoq muddatli maqsadlarning huquqiy mustahkamlangani. * Investitsion jozibadorlik: Xalqaro brendlarni (mehmonxona, operatorlar) jalb qilish uchun soliq va bojxona imtiyozlari.¹⁶ * Diversifikatsiya: MICE turizmi, ekoturizm va "yashil" sertifikatlash orqali yangi segmentlarni kengaytirish. * Innovatsiyalar: Raqamli identifikatsiya va sun'iy intellekt (AI) asosidagi aqlli xizmatlarni joriy etish.	T - Tahdidlar (<i>Threats</i>) * Raqobat: Mintaqaviy turizm bozorida raqobatning keskin kuchayishi (<i>Turkiya, BAA, Qozog'iston</i>). * Statistika noaniqlik: Metodologiya nomukammalligi (MDH fuqarolarini to'liq "sayyoh" sifatida hisoblash muammosi).¹⁷ * Ekologik risklar: Iqlim o'zgarishi va ekologik omillar (<i>Orolbo'yi inqirozi, suv va energiya resurslari tanqisligi</i>). * Makroiqtisodiy risklar: Global iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya va valyuta kurslari o'zgaruvchanligi.

Mavjud muammolar va ularning sabablari. Tahlil natijasida quyidagi muammolar aniqlandi: 1) vakolatli davlat organining tez-tez qayta tashkil etilishi natijasida institutsional xotira shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda; 2) hududiy dasturlarni markaziy hujjatlar bilan muvofiqlashtirish mexanizmi yetarlicha aniq emasligi; 3) kichik-o'rta turizm tadbirkorligi uchun litsenziyalash talablari ortiqcha ma'muriy yuk yaratmoqda; 4) turistlar huquqlarini himoya qilish alohida qonun darajasida batafsil tartibga solinmagan; 5) rasmiy statistika metodologiyasida "sayyoh" tushunchasining aniq mezonlari yo'qligi ko'rsatkichlarning xalqaro taqqoslanuvchanligini pasaytirmoqda.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, TITHSI indeksining eng past komponenti - institutsional barqarorlik - bo'lgani sabab, asosiy e'tibor aynan shu yo'nalishga qaratilishi lozim. Amaliy tavsiyalar ijro muddati va mas'ul tashkilotlar ko'rsatilgan holda quyida taqdim etiladi:

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son Qarori.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari (2019–2026-yillar).

Amaliy tavsiyalar: mas'ul tashkilot, muddat va kutilayotgan natija

№	Tavsiya	Mas'ul tashkilotlar	Ijro muddati	Kutilayotgan natija
1	Turizm qo'mitasi maqomini qonun darajasida mustahkamlash	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Turizm qo'mitasi	2026-yil IV chorak – 2027-yil I chorak	I _{barqaror} ko'rsatkichini 0,40 dan 0,70 gacha oshirish
2	“Turizm to'g'risida”gi Qonunga turistlar huquqlarini himoya qilish bobini kiritish	Adliya vazirligi, Turizm qo'mitasi	2027-yil I yarmi	Fuqarolik-huquqiy nizolar sonini kamaytirish
3	Hududiy dasturlarni markaziy strategiya bilan muvofiqlashtirish reglamentini joriy etish	Turizm qo'mitasi, viloyat hokimliklari	2026-yil IV chorak	Hududlar kesimidagi resurs taqsimotini optimallashtirish
4	KO'B (Kichik va o'rta biznes) uchun xavf darajasiga asoslangan sertifikatlashtirish tizimini joriy etish	Turizm qo'mitasi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi	2027-yil boshi	Ma'muriy yukni 30–40% ga kamaytirish
5	Statistik metodologiyani BMT UNWTO standartlariga moslashtirish (“sayyoh” mezonlarini aniqlashtirish)	Statistika agentligi, Turizm qo'mitasi	2026-yil IV chorak	Xalqaro taqqoslanuvchan statistika bazasini yaratish
6	DXS shartnomalarining namunaviy shakllarini ishlab chiqish, ekologik-huquqiy chegaralarni belgilash	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi	2027-yil	Investitsiya risklarini kamaytirish

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi, taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, TITHSI umumiy indeksini 0,54dan 0,75–0,80 darajasigacha oshirishga, shu orqali PF-217-son Farmonda belgilangan 2030-yilgacha strategik maqsadlarga erishish ehtimolini sezilarli darajada kuchaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari (2019–2026-yillar).
9. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). Ўзбекистон туризми: 7 йилда қандай ўзгаришлар бўлди? — Toshkent, 2025.
10. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining rasmiy sayti materiallari, 2025–2026.
11. Karimova D.A. Turizm sohasida davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2024. – №3.
12. Rasulov T.S. Turizm xizmatlari bozorini tartibga solishning institutsional mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
13. Тошкент вилояти Туризм бошқармаси. Тошкент вилоятида туризмни ривожлантириш ҳисоботи. – 2024.
14. Gazeta.uz. Ўзбекистонга 2023 йилда 7 миллионга яқин сайёҳ келди. – 2024.
15. Dunyo AA. Ўзбекистон туризми тарихий рекордларни янгиламоқда. – 2025.
16. Adambayev A.R., Qodirova D.S. TURIZM SOHASIDA TADBIRKORLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI [Elektron resurs]// Экономика и социум.-2025.- № 10 (136) (nashr qilingan sana: __.10.2025).-URL:https://a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdfb.filesusr.com/ugd/b06fdc_5135a72b03874db19a8c2dc42b1aac4c.pdf?index=true (kirish sanasi: 31.07.2026)